

Qabul 2026

Toshkent farmatsevtika instituti akademik litseyiga kirish imtihonlari Bilimni baholash Agentligi tomonidan tashkil etiladi. Imtihonlarga ro'yxatdan o'tish agentlik tomonidan tasdiqlangan maxsus platforma orqali amalga oshiriladi (my.edu.uz)

Qabul 2026-yil 10-iyunidan 2026-yil 10-iyul sanasiga qadar davom etadi.

Toshkent farmatsevtika instituti akademik litseyidagi ta'lim yo'nalishlari va ularning imtihon tartibi

Tabiiy fanlar 1(biologiya):

- Biologiya 20 savol (3.1 ball)
- Kimyo 20 savol (3.1 ball)
- IQ test 20 savol (1.1 ball)

Bunda abituriyent maksimal 146 bal to'plashi mumkin

Arizani topshirish uchun video qo'llanma

-
-
-
- Abituriyentlar akademik litseylarga qabul qilish uchun Yagona ta'lim xizmatlari portali my.edu.uz orqali (keyingi o'rinlarda — tizim) har yili 10 iyundan 10 iyulga qadar bepul ro'yxatdan o'tkaziladi.
- Abituriyentlarga ro'yxatdan o'tishda uchtagacha akademik litseyning ta'lim tili bir xil bo'lgan bittadan mos yo'nalishini tanlash imkoniyati beriladi.
- Abituriyent o'zi tanlagan hududda (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazi yoki Toshkent shahrida) tashkil etiladigan kirish test sinovlarida ishtirok etadi.
- **Abituriyent ro'yxatdan o'tish jarayonida tizimga quyidagi hujjatlarni va ma'lumotlarni kiritishi va yuklashi lozim:**
- o'qishga imtiyozli kirish huquqini beruvchi hujjatlarning nusxasi (fan olimpiadasi, tanlovlar, musobaqa g'olibi ekanligini tasdiqlovchi), diplom, sertifikat, guvohnoma, shuningdek, chet tili va umumta'lim fanlarini bilish darajasi to'g'risidagi milliy yoki xalqaro sertifikat (agar mavjud bo'lsa);
- xorijiy davlatda umumiy o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatning tan olinganligi (nostrifikatsiya) haqidagi ma'lumotnomasi (agar O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan abituriyent maktabning 9-sinfini xorijiy davlatda tamomlagan bo'lsa);
- abituriyentning 3,5x4,5 hajmdagi fotosurati (agar abituriyent tug'ilganlik to'g'risida guvohnomasi bilan ro'yxatdan o'tgan bo'lsa);
- ta'lim yo'nalishi, ta'lim tili, qaysi chet tilidan (ingliz, nemis, fransuz va sharq tillaridan biri) kirish test sinovini topshirishi haqida ma'lumot.
- Abituriyent tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning qalbakiligi aniqlansa, abituriyent kirish imtihonlaridan chetlashtiriladi hamda bu haqda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar qilinadi.